

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7832988>

**Shukurova Ozoda Odil qizi**

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Xususiy huquq 3-bosqich talabasi.*

[olatipova513@gmail.com](mailto:olatipova513@gmail.com)

**Annotatsiya:** Xalqaro investitsiya shartnomalari hozirgi kunda davlatlar o'rtasida har tomonlama mustahkam aloqa o'rnatishning muhim omili bo'lib kelmoqda. Xalqaro investitsiya huquqning manbalari esa investitsiyaviy muhitni tartibga solish va rivojlantirishning asosiy poydevori hisoblanadi. Davlatlar o'rtasida investitsiyaviy nizo kelib chiqadigan bo'lsa, xalqaro konvensiyalar, normalar orqali tartibga solinadi. Konvensiyalar va boshqa xalqaro investitsiya huquqning manbalari nafaqat investitsiyaviy munosabatlarni tartibga soladi, balki investorga qulay tadbirkorlik muhitini yaratadi, huquqlarini kafolatlaydi. Ayniqsa, xalqaro investitsiya huquqning prinsiplari muhim ahamiyatga ega. Xorijiy investor biror davlatga investitsiya kiritar ekan, avvalo uning huquqlari qanday himoya qilinishi, qanday kafolatlar berilishi, mamlakatdagi yurispridensianing qanchalik kuchli tartibi o'rнata oлganligi, investorlarga yaratilayotgan sharoitlar kabi bir qator savollarni o'rtaga tashlaydi. Biror davlatga investitsiya kiritishda muhim masala xorijiy investorlarga qancha ko'p kafolatlar, imtiyozlar berilganligida emas, balki berilgan imtiyozlarning qanchasi qay darajada ishlayoitganligidir.

Ushbu maqolada xalqaro investitsiya huquqida manbalarning muhim ro'li, prinsiplar manba sifatida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi, milliy va xorijiy tajriba, Seul va Vashington konvensiyalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalar tahlil qilinadi. Ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlarning ahamiyati va dolzarbligi muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** manbalar, jus cogens, sud amaliyoti, prinsiplar, BIT, Washington konvensiyasi, Seul konvensiyasi, xalqaro mintaqaviy shartnomalar, ikki yoqlama soliqqa tortmaslik prinsipi.

#### **SOURCES OF INTERNATIONAL INVESTMENT LAW**

**Shukurova Ozoda Odil's daughter**

*Tashkent State Law University*

*3rd level student of private law.*

**Annotation:** Today, international investment agreements are an important factor in establishing solid relations between countries. Sources of international investment law are the main foundation of regulation and development of the investment environment. If an

*investment dispute arises between countries, it is regulated by international conventions and norms. Conventions and other sources of international investment law not only regulate investment relations, but also create a favorable business environment for investors and guarantee their rights. The principles of international investment law are especially important. When a foreign investor invests in a country, he first raises a number of questions, such as how his rights are protected, what guarantees are provided, how strong the country's jurisprudence has been, and the conditions created for investors. . An important issue when investing in a country is not how many guarantees and benefits are given to foreign investors, but how many of the given benefits work.*

*This article analyzes the important role of sources in international investment law, how important principles are as sources, national and foreign experience, and issues directly related to the Seoul and Washington Conventions. The importance and relevance of bilateral and multilateral agreements will be discussed.*

**Key words:** sources, *jus cogens*, judicial practice, principles, BIT, Washington Convention, Seoul Convention, international regional agreements, principle of non-double taxation.

**Kirish:**

Xalqaro investitsiya huquqi manbalarini tahlil qilishdan oldin xalqaro investitsiya huquqi tushunchasi o'zi nima ekanligini bilib olsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xalqaro investitsiya huquqi bu xorijiy investorlarni jalg qilish, investitsiya faoliyatini rivojlantirish, himoya qilish va tartibga solishdan iborat huquq sohasi hisoblanadi. Investitsiya faoliyati bilan investor shug'ullanadi. Investor esa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy va yuridik shaxs bo'lishi mumkin. Xalqaro investitsiya huquqi xorijiy investorlar bilan bog'liq soha bo'lganligi uchun ham investorlar O'zbekiston yoki xorijiy mamlakatlarning jismoniy va yuridik shaxslari bo'lishi mumkin. Ushbu soha subyekti bo'lgan investorlar o'rtaсидagi munosabatlar investitsiya shartnomalari asosiga quriladi. Investitsiya shartnomasi investorlar o'rtaсиda tuziladigan, taraflarning huquqlari, majburiyatları va javobgarliklarini belgilaydigan yozma bitim hisoblanadi. Xalqaro investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi deklaratsiyalar, konvensiyalar, ikki tomonlama, mintaqaviy va ko'p tomonlama shartnomalar xalqaro investitsiya huquqining manbalari hisoblanadi.

**Muhokama va natijalar**

Ushbu manbalar qatoriga 1974-yildagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yangi xalqaro iqtisodiy tartibni yaratish to'g'risida" gi Deklaratsiyasi, 1992-yildagi XTBning xorijiy investitsiyalar rejimi bo'yicha ko'rsatmalari kiradi. Shuningdek, Evropa Ittifoqi, MDH, ASEAN, NAFTA kabi xalqaro mintaqaviy shartnomalar ham Xalqaro investitsiya huquqining manbalaridir.

Xalqaro investitsiya nizolarini hal qilish bo'yicha ham bir qancha manbalar mavjud. Ulardan eng asosiyulari 1965-yildagi xalqaro investitsiya nizolarini hal qilish

to'g'risidagi Vashington konvensiyasi va Xalqaro investitsiyalar kafolati agentligini tashkil etish to'g'risida Seul konvensiyasi hisoblanadi. 1994-yildagi Evropa Energetika Xartiyasida bayon etilgan ilg'or me'yorlar ham butun Xalqaro investitsiya huquqi tizimi uchun muhim manba xarakteriga ega.

Bundan tashqari, Intellektual mulk huquqini himoya qilishning savdo bilan bog'liq jihatlari to'g'risida Bitim (TRIPS), GATT / JST doirasida amaldagi shartnomalarda belgilangan huquqiy me'yorlar; savdo bilan bog'liq investitsiya choralari to'g'risidagi bitim (TRIMS); Moliyaviy xizmatlar ko'rinishidagi investitsiyalarni tartibga solishni belgilaydigan Xizmatlar Savdo to'g'risida Bosh kelishuv (GATs) kabilar ham xalqaro investitsiya huquqining asosiy manbalaridan sanaladi. Ikki tomonlama shartnomalar investitsiyaviy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda 2600 dan ortiq ikki tomonlama shartnomalar va nir qancha ko'p tomonlama hamda mintaqaviy shartnomalar mavjud. Ushbu shartnomalar aksariyat holatda ham investitsiyaviy nizolar bilan bog'liq ishlarda, nizoni hal qilish uchun manba sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Ammo shuni ham e'tiborga olish kerakki, investitsiya huquqining turli manbalaridan kelib chiqadigan turli xil qoidalalar har biriga zid bo'lishi mumkin va BITlarning ko'payishi, shuningdek, investitsiya tribunallari mukofotlari sonining ko'payishi ko'proq nomuvofiq qoidalarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, jus cogens sifatida qaraladigan xalqaro normalar (majburiy normalar) xalqaro huquqning boshqa barcha mos kelmaydigan qoidalardan ustun turadi. Jus cogens qoidalarning yuqori normativ maqomi bir qancha investitsiya hujjatlarida tasdiqlangan. "Shartnomalar huquqi to'g'risidagi" 1969-yildagi Vena konvensiyasining 53-moddasida bunday ziddiyatli shartnoma haqiqiy emasligi belgilangan. Xalqaro huquq manbalari o'rtasida bunday ziddiyatli normalarni ko'p uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari, shartnoma va odat huquqi normalarining bir-biridan ustunligi ham ziddiyatli hisoblanadi. Xalqaro huquqda esa shartnoma va odat teng degan nazariya ilgari suriladi. Shu sababli ham nizo kelib chiqqanda ikkita qoida bir-birga zid kelib qolishi mumkin.

Keyingi investitsiya huquqining manbasi sud qarorlari hisoblanadi. Sud qarorlari "huquq normalarini aniqlashning yordamchi vositalari" ni tashkil qiladi. Garchi ushbu qoida sud qarorlari faqat ikkinchi darajali rol o'ynashini ko'rsatsada, xalqaro sudlar qonun ijodkorligi jarayonida va sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi va xalqaro huquq rivojiga hissa qo'shamdi. Pellet aytganidek:

"... shubhasiz, haqiqatda xalqaro huquqshunoslikda, xalqaro huquqning mustahkamlanishi va evolyutsiyasida sud amaliyoti kuchli vosita bo'ldi."

Haqiqatda xalqaro tribunallarning qarorlari ham xalqaro investitsiya yurisprudensiyasida muhim ro'l o'ynaydi. Xuddi, ingliz huquqi pretsedent tamoyiliga asoslanib qurilgan bo'lsa, xalqaro investitsiya huquqida ham sud qarorlari asosiy manba bo'lib keladi. Fikrimcha, ushbu holatda xalqaro huquq ingliz huquqidan namuna olgan. Masalan, ikki davlat o'rtasida investitsiyaviy nizo vujudga kelib, sud muammoni hal

qilish uchun yechim topa olmasa yoki umuman, muammo yuzaga kelgan paytda sud qarorlariga murojaat qilish eng qulay yechim hisoblanadi. Chunki yuzaga keladigan har qandday muammoni yechimi bilan bog'liq norma yaratilmagan, ularni hal qilish uchun ilgari qabul qilingan sud qarorlari yordamga keladi. Sud qarorlarining asosiy manba bo'lishining yana bir yaxshi jihat shundaki, o'tmishda bo'lgan sud protsesida qabul qilingan qarorning natijasi hozirda qanday oqibatlarga olib kelganligini aniqlash imkoniyati bor. Agar o'tmishdagi sud qarori har tomonlamaadolatli qabul qilingan bo'lsa, hozirgi kunda ushbu muammo yuzasidan vaziyat ancha yaxshilangan bo'ladi.

Ushbu xalqaro investitsiya huquqining manbalari investorlarning faoliyatini tartibga solish, rivojlantirish, himoya qilish va javobgarlik masalalari bilan bog'liq normalarni belgilaydi. Investitsiya faoliyatining rivojlanishi va xorijiy investorlarning kirib kelishiga milliy qonunchilik ham juda katta rol o'ynaydi. Qachon milliy qonunchilik yaxshi ishlasa, investorlarga keng imkoniyatlar yaratilgan, uning huquqlari himoya qilinadigan bo'lsa, o'sha mamlakatda investorlarning kirib kelish oqimi kuchayadi va investitsiya faoliyati rivojlanadi. Xalqaro investitsiya huquqining shartnomaviy manbalari milliy qonunchilikka tadbiq etilgandan so'ng, ular xorijiy investitsiyalar jalb qilingandan boshlab, tugatilguncha bo'lgan huquqiy rejimni belgilaydi, normalarni va prinsiplarni mustahkamlaydi. Sarmoyalarni o'zaro himoya qilish to'g'risidagi xalqaro shartnomalar xalqaro investitsiya huquqining eng keng tarqalgan manbalaridan sanaladi. Bu turdagи shartnomalar ikki tomonlama soliqqa tortmaslik prinsipi asosida yuzaga kelgan. Ushbu prinsip xorijiy investorlar bilan munosabatda juda katta rol o'ynaydi. Xorijiy investor davlatga kirib kelayotganda, albatta davlatlar o'rtaidan ikki tomonlama soliqqa tortmaslik prinsipi bo'yicha shartnomani mavjud yoki mavjud emasligiga e'tiborini qaratadi. Shuni alohida e'tiborga olish kerakki, prinsiplar ham xalqaro investitsiya huquqining muhim manbasi hisoblanadi ammo prinsiplar maxsus emas, umumiy qoidani o'rnatadi. Biroq hech qaysi maxsus norma umumiy qoida, ya'ni prinsiplarga zid bo'lishi mumkin emas. Ikki yoqlama soliqqa tortmaslik ham muhim prinsip hisoblanadi. Ikki yoqlama soliqqa tortmaslik prinsipi asosan, davlat o'rtaqidagi shartnomalarda belgilanadi. Agar investitsiyaviy shartnomada bu prinsip nazarda tutilmagan bo'lsa, injvestor bir nechta davlatda soliq to'lashiga to'g'ri keladi bu esa ko'zda tutilgan foydaning kamayishini nazarda tutadi. Investor ikki tomonlama soliqqa tortishga munosabatni belgilaydigan soliq tizimlarining ikki prinsipi orqali soliqqa tortilishu mumkin, agarda davlatlar o'rtaida ikki yoqlama soliqqa tormaslik bandi shartnomaga kiritilmagan bo'lsa. Ular quyidagilar:

- yashash prinsipi - bu bir mamlakatda doimiy yashash joyiga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning, shuningdek, shu mamlakatda ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarning barcha daromadlariga, shu jumladan chet elda olinganlarga ham soliq solishni;

- hududiylik prinsipi - daromad olayotgan shaxslarning doimiy yashash joyi yoki ro'yxatdan o'tgan joyidan qat'i nazar, ushbu mamlakatlar hududida olingan

daromadlardan soliq undirishni keltirib chiqardi. Shunga ko'ra har bir davlat o'z soliq qonunchiligini qo'llashga haqli bo'ladi.

Ayrim olimlar ikkiyoqlama soliqqa tortish xalqaro miqyosdagina sodir bo'ladi degan nazariyani ilgari surishadi. Y'a ni shaxs ikki davlatda soliq solinadigan daromadga ega bo'lgandagina ikki tomonlama soliqqa tortilishi mumkinligini ta'kidlashadi. Ayrimlari esa ikki tomonlama soliqqa tortish mahalliy soliq tizimida ham bo'lishi mumkinligini keltirishadi. Unga ko'ra ikkiyoqlama soliqqa tortishning ikki turi mavjud.<sup>71</sup>

Bundan tashqari xalqaro investitsiya huquqining yana bir qancha prinsiplari mavjud bo'lib, ular ham manba hisoblanadi. Nizolarni hal qilish, investitisiyaviy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Nafaqat xalqaro investitsiya hququning prinsiplari, balki davlatimizning ichki investitsiya munosabatlarini tartibga soluvchi prinsiplari ham mavjud. Bu ikki turdag'i prinsiplarni bir-biri bilan solishtirib o'rgansak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xalqaro investitsiya huquqining prinsiplari quyidagilar:

**Adolatli va teng rejim prinsipi (Fare and Equitable Treatment (FET))**

**Investitsiyaning to'liq himoyasi va xavfsizligi prinsipi (Full Protection and Security)**

**Milliy rejim prinsipi (National Treatment)**

**Eng gulay shartlar rejimi prinsipi (Most-Favoured-Nation Treatment (MFN))**

Investitsiyalarni natsionalizatsiya qilish paytida yuzaga kelgan zararni qoplash printsipi

**Subrogatsiya prinsipi**

**Ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik prinsipi<sup>72</sup>**

Xalqaro investitsiya huquqi subyektlari investitsiya faoliyatini amalga oshirar ekan, avvalo ushbu prinsiplarga zid bo'lмаган tarzda harakat qilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-soni "Investitsiya va investitsiya faoliyati tog'risida" gi Qonunining 4-moddasida investitsiyalar va investitsiya faoliyati prinsiplari ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra:

qonuniylik;

oshkorlik va ochiqlik;

investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligi;

adolatlilik va investitsiya faoliyati subyektlarining tengligi;

investorlarga nisbatan kansitishga yo'l qo'ymaslik;

investorlarning vijdonliliği prezumpsiysi.<sup>73</sup>

Ushbu prinsiplarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, xuddiki investitsiya huquqining prinsiplari xalqaro investitsiya huquqining prinsiplarini to'ldirayotganga o'xshaydi.

<sup>71</sup> Imomniyozov D. B. O. G. L. IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTMASLIK PRINSIPINING AHAMIYATI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 10. – C. 1174-1182.

<sup>72</sup> <https://fayllar.org/xalqaro-investitsiya-huquqi-prinsiplari.html>

<sup>73</sup> 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-soni "Investitsiya va investitsiya faoliyati tog'risida" gi Qonunining 4-moddasi.

Adolatli va teng rejim prinsipida chet el investorlarining bir-birlariga yoki davlatning ichidagi investorlarga nisbatan teng huquqlarga ega ekanligi ifodalangan. Investitsiya huquqidagi adolatlilik va investitsiya faoliyati subyektlarining tengligi yuqoridagi prinsip bilan chambarchas bog'lanib uni mustahkamlash va to'ldirishga xizmat qilmoqda. Investorlarning vijdonligi prezumsiyasi prinsipi ham adolatlilik va teng rejim prinsipi bilan bog'liq hisoblanadi.

**Washington konvensiyasi.** Xalqaro investitsiya huquqida nizolarni hal etish bo'yicha ikkita asosiy konvensiyani tahlil qiladigan bo'lsak, yuqorida keltirib o'tganimizdek, 1965-yildagi xalqaro investitsiya nizolarini hal qilish to'g'risidagi Washington konvensiyasi xalqaro investitsiya huquqining eng muhim manbalaridan bira hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 7-maydagi 881-XII-sonli qaroriga asosan "Davlatlar va xorijiy shaxslar o'rtasidagi investitsiyaga doir nizolarni hal etish tartibi to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilish to'g'risida"gi qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga qo'shilgan. 1995-yil 25-avgustdan O'zbekiston Respublikasi uchun kuchga kirgan. Konvensiya 75 ta moddadan iborat. Konvensiyada hech bir Ahslashuvchi Davlat faqat ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish, qo'shilish yoki tasdiqlash yo'li bilan va uning roziligidan har qanday muayyan nizoni yarashtirish yoki hakamlik sudiga topshirishga majbur emasligini mustahkamlangan. Mazkur konvensianing asosiy maqsadi investitsiyaviy nizolarni hal qilish hisoblanadi.

Shartnomalar tuzuvchi davlatlar:

Iqtisodiy rivojlanish uchun xalqaro hamkorlik zarurligini va bunga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyatini yodda tutib;

Shartnomalar tuzuvchi Davlatlar va boshqa shartnomalar tuzuvchi Davlatlar shaxslari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq ravishda nizolarning vaqtiga bilan yuzaga kelishi ehtimolini yodda tutgan holda;

Umumiy qoida tariqasida, bunday nizolar milliy tartibga solish tartib-qoidalari bo'y sunishini, ammo ba'zi hollarda xalqaro huquqiy vositalar qo'llanilishi mumkinligini tan olib;

Shartnomalar tuzuvchi Davlatlar va boshqa Ahslashuvchi Davlatlarning shaxslari, agar xohlasalar, murojaat qilishlari mumkin bo'lgan xalqaro kelishuv yoki hakamlik vositalarining mavjudligini ta'kidlab;

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki homiyligida bunday mablag'larni tashkil etishni istab;

Tomonlarning bunday nizolarni yarashtirish yoki hakamlik sudiga yuborish uchun o'zaro roziligi tomonlar uchun majburiy bo'lgan kelishuv ekanligini, xususan, vositachilar tomonidan berilgan tavsiyalar va hakamlarning qarorlari to'g'risida

kelishib konvensiyaga a'zo bo'l shadi. Ushbu normalar Vashington Konvensiyasining kirish qismida belgilangan.<sup>74</sup>

Konvensiyaning 1-moddasiga asosan, investitsiyaga bog'liq nizolarni hal qilish bo'yicha xalqaro markaz (keyingi o'rnlarda Markaz deb yuritiladi) tashkil etilgan. Markazning vazifasi Konvensiya qoidalariga muvofiq shartnoma tuzuvchi davlatlar va boshqa shartnoma tuzuvchi davatlarning shaxslari o'rtasidagi investitsiya nizolarini yarashtirish va hakamlik sudi orqali hal qilinishini ta'minlashdir. Markaz Boshqaruv Kengashi va Kotibiyatni o'z ichiga oladi hamda Mediatorlar ro'yxati va Hakamlik sudyalari ro'yxatini yuritadi.<sup>75</sup> Konvensiyaning tegishli moddalarida boshqaruv kengashining vazifalari yoritilgan. 6-moddaga asosan, boshqaruvchi kengashi ushbu Konvensiyaning qoidalarida ko'zda tutilgan huquq va vakolatlarga ziyon etkazmasdan:

- a) Markazning ma'muriy va molivayi qoidalarini qabul qiladi;
- b) yarashtirish va hakamlik sudlarini o'tkazish qoidalarini qabul qiladi;
- v) yarashtirish va hakamlik sudyalari qoidalarini (keyingi o'rnlarda yarashish va hakamlik sudlari qoidalari deb yuritiladi) qabul qiladi;
- d) Bank tomonidan qabul qilingan va u uchun mavjud bo'lgan ma'muriy vositalar va xizmatlardan foydalanishga qaratilgan tadbirlarni tasdiqlaydi;
- e) Bosh kotib va Bosh kotib o'rnbosari faoliyati shartlarini belgilaydi;
- f) Markazning yillik daromadlari va xarajatlari byudjetini qabul qiladi;
- g) Markaz faoliyati to'g'risida yillik hisobotni tasdiqlaydi.<sup>76</sup>

Markazning asosiy nizolarni hal qilish bo'yicha vaolatlariga to'xtaladigan bo'lsak, markazning vakolatlari bir shartnoma tuzuvchi Davlat (yoki bir shartnoma tuzuvchi Davlat tomonidan Markazga xabar qilingan biron bir shartnoma tuzuvchi Davlatning biron bir vakolatli organi) va boshqa shartnoma tuzuvchi Davlatlar o'rtasidagi investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardan kelib chiqadigan huquqiy nizolarni hal qilishdi,

Vashington konvensiyasida xalqaro investitsita huquqining manbasi sifatida qanday vakolatlarga ega ekanligi, huquq va majburiyatlarini yoritiladi.

**Seul konvensiyasi.** Ushbu konvensiya ham xalqaro investitsiya huquqining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Konvensiyaga muvofiq, investitsiyaviy kafolatlar agentligi tashkil topgan bo'lib, konvensiyadagi ko'zlangan maqsadgfa erishish uchun Agentlik:

- a) boshqa a'zo davlatlardan har qanday a'zo mamlakatda amalga oshiriladigan investitsiyalarga nisbatan notijorat tavakkalchiliklarni birqalikda va qayta sug'urtalashni o'z ichiga olgan kafolatlar beradi;

<sup>74</sup> The 1973 Convention on International Trade in Endangered Species of Wild Fauna and Flora, (also known as the Washington Convention)Section preamble.

<sup>75</sup> The 1973 Convention on International Trade in Endangered Species of Wild Fauna and Flora, (also known as the Washington Convention)Article 1.

<sup>76</sup> The 1973 Convention on International Trade in Endangered Species of Wild Fauna and Flora, (also known as the Washington Convention)Article 6.

b) rivojlanayotgan a'zo mamlakatlarga va ular o'rtasida investitsiya oqimini rag'batlantirish uchun tegishli qo'shimcha faoliyatni amalga oshiradi, shuningdek

v) ushbu maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan boshqa qo'shimcha kuchlarga ega.<sup>77</sup>

Vashington konvensiyasining asosiy maqsadi investitsiyaviy nizolarni hal qilish va xalqaro investitsiyaviy munosabatlarda tartib o'rnatish bo'lsa, Seul konvensiyasi investorlarga bir qancha kafolatlar, imtiyozlar beradi, investitsiyalarni rag'batlantiradi, milliy va xalqaro tashkilotlarni, bir so'z bilan aytganda investitsiya munosabati subyektlarining faoliyatini sug'urtalaydi va ularni himoya qiladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan kelib chiqishimiz mumkinki, xalqaro investitsiya huquqining manbalari bir muncha mukammalikka ega. Xalqaro ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro investitsiya huquqining normalari bundga misol bo'la oladi. Investitsiyaviy muhitni takomillashtirish, xalqaro investitsiya huquqining prinsiplari bilan investor va hos tage davlatning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, kirib kelayotgan investitsiya oqimini rag'batlantirish va qonunchilikda sustkashliklarga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo yanayam takomillashgan normalarni ishlab chiqish va amaldagi qonunchilik normalarini amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyatga ega deb hisoblayman. Investitsiya faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflarim esa quyidagilardan iborat:

- Xorijiy investitsiyalarning asosiy qismini qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish tizimga qaratish.

- Xorijiy investorlar sohani rivojlantirish uchun olib kirayotgan texnologiyalar va boshqa mahsulotlar uchun bojxona to'lovlarini kamaytirish.

- Xorijiy investorlarning yukini yengil qilish va samarali faoliyat olib borishi uchun soliqlarni to'lashda ham bir qator imtiyozlar berish.

- Mamlakatga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini kuchaytirish maqsadida yana bir qancha imtiyoz va kafolatlar berish.

Ushbu takliflar har tomonlama o'tganib chiqilib, amalaiyotga tadbiq etilsa fikrimcha, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

## **BIBLIOGRAPHY:**

1. Imomniyozov D. B. O. G. L. IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTMASLIK PRINSIPINING AHAMIYATI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 10. – C. 1174-1182.
2. <https://fayllar.org/xalqaro-investitsiya-huquqi-prinsiplari.html>
3. 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-sonli "Investitsiya va investitsiya faoliyati tog'risida" gi Qonunining 4-moddasi.

<sup>77</sup> The 1992 Convention establishing the Multilateral Investment Guarantee Agency (MIGA). Article 2.

4. The 1973 Convention on International Trade in Endangered Species of Wild Fauna and Flora, (also known as the Washington Convention)Section preamble, Article 1,6.

5. The 1992 Convention establishing the Multilateral Investment Guarantee Agency (MIGA).Article 2.

6. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/02/26/investments/>

7. <https://m.kun.uz/uz/news/2019/10/25/investorlar-bilan-sudlashuvlar-tarixiga-nazar-nizolardan-saqlanish-uchun-nimalarga-etibor-berish-kerak>

8. Umrzaqov X. A. XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA VA TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY HOKIMLIKLARNI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 35-40.